

## BOSHLANG'ICH SINIF TABIIY FANLARDA IQLIM O'ZGARISHINING TABIIYATGA TA'SIRI HAQIDA TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH

Shonazarova Sevara Rashidovna

Temiz pedagogika instituti o'qituvchisi

Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

Qulmatova Munavvara Faxriddinovna

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 22-12 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10110024>

**Annotatsiya:** Global iqlim o'zgarishining oqibatlarini. Global iqlim o'zgarishi va migratsiya jarayoni o'rtasidagi bog'liqlik. Ekologik tanglik oqibatida yil davomida yog'ingarchilik bo'lmagan kunlar. Atmosferada changlanish miqdori. Haddan ortiq isish va sovish kabi anomal hodisalar qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mevalarining nobud bo'lishi. Iqlimni shakllantirish omillari kabilar haqida fikr kiritilgan.

**Kalit so'zlar:** Migratsiya, dinamika, issiqxona gazlari, atmosfera, ixtilof, ommaviy ko'chish.

Iqlim o'zgarishi bu - Yer shari yoki uning ma'lum bir qismida uzoq vaqt davomida iqlim bilan bog'liq shart - shartlarning o'zgarish jarayoni. Global isish esa - ma'lum bir davrda Yer sharida o'rtacha haroratning ko'tarilishi bilan bog'liq jarayon. Global iqlim o'zgarishining oqibatlarini ko'psonli ixtiloflar va ommaviy ko'chishlarga ham sabab bo'ladi. Yaqinda ilm - fan bu nazaryaning haqiqatga mos kelishini tasdiqladi.

Amaliy - tizimli tahlil xalqaro instituti olimlari o'tkazgan tadqiqot ilk bor iqlim o'zgarishi va ortib borayotgan ixtiloflar, shuningdek, tabiiy oqibatlar tufayli yuzaga kelayotgan ommaviy ko'chishlar o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ko'rsatib beradi. So'ngi vaqtlarga qadar olimlar iqlim o'zgarishi va migratsiya o'rtasidagi sabab - oqibat bog'liqliklarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratmay kelayotgan edi. Gap shundaki, bir omil boshqasining yuzaga kelishiga sabab bo'layotganini isbotlash uchun o'ta qat'iy va jiddiy ilmiy dalillar talab etiladi.

Mualliflar buning uchun bir qancha tadqiqotlarni umumlashtirib, yagona manzarani hosil qilishga intilgan. Boshlanishiga ular 2006-2015-yillar davomida 157 davlatda qochoqlar boshpana so'rab bergan arizalar sonini aniqlab chiqdi. So'ng qochoqlarning asl vatanida ro'y bergan iqlim o'zgarishining dinamik jadvali tuzildi. Iqlim o'zgarishining asosiy ko'rsatkichi sifatida yog'ingarchilik miqdorining tushib ketishi va parlanish hajmi olindi.

Pirovardida tadqiqot natijalari 2006-2015-yillar davomida iqlim o'zgarishi migratsiya darajasi va yo'nalishiga katta ta'sir etganini ko'rsatdi. Kuchli qurg'oqchiliklar esa mavjud qurolli ziddiyatlarni yanada kuchaytirgani, qurbonlar sonining keskin ortishiga sabab bo'lgani aniqlandi.

- Isib borayotgan dunyoni halokatga yuz tutishdan asrash uchun global isish darajasini 2 gradusdan pastda ushlab turish g'oyasini ilk bor 1975 - yili AQSHlik iqtisodchi Uliyam Nordhauz ilgari surgan edi. Biroq 1990 - yillarga qadar biror davlat atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarini cheklash masalasiga jiddiy e'tibor qaratmadi. Nihoyat 1990 - yillar o'rtasida Yevropa davlatlari ikki darajali cheklov bo'yicha qo'shma bitimlarni imzoladi. 2010 - yilga kelib esa iqlim isishi muammosiga qarshi kurash BMT siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Global isishni 1,5 gradusdan pastda ushlab turish juda mushkul masala - deydi mutaxassislar. Agar hozir insoniyat qo'lida mavjud barcha imkoniyatlar ishga solinganda ham, bu maqsadga 2040 - yilga boribgina erishish mumkinligi bashorat qilinadi. Iqlim isishini 1,5 gradusdan pastda saqlash hozirgi kun uchun erishib bo'lmas maqsaddek

ko'rinayotgan bo'lsa-da, ko'plab davlatlar iqlim o'zgarishi muammosiga endilikda jiddiy qaramoqda.

- Ayrim ekologlar esa global isishga qarshi yangi texnologiyalar yoki milliardlab daraxt ko'chati o'tqazish bilan kurashish shart emasligini ta'kidlaydi. Agar biz hozir atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarini keskin qisqartirsak va oziq – ovqat mahsulotlari yetishtirish uchun tabiiy muhiti buzilgan yerlarni qayta tiklasak yoki go'sht iste'mol qilishni kamaytirsak, shuning o'zi bir yarim gradusli maqsadga erishishda yetarli bo'larkan. Shundan so'ng havo tozalanadi, semizlik darajasi ham pasayadi. Tabiiy muhiti vayron qilingan, sanoatlashtirilgan dunyodan ko'ra shunisi yaxshiroq.

Mutaxassislar iqlim o'zgarishining asosiy omili issiqxona effekti ekanini ta'kidlashadi. Quyoshdan kelgan issiqlikning Yer sathida jamlanib, dimlanib qolishi "issiqxona effekti" deyiladi. Ya'ni quyoshdan kelgan nurni Yer ham atmosfera orqali koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish o'rniga zavodlardan chiqarilgan turli gazlarga yutiladi. Uning koinotga qaytib chiqib ketmasligi oqibatida Yer yuzi me'yoridan ortiq qiziydi va iqlimga ta'sir ko'rsatadigan issiqxona qatlami hosil bo'ladi. Natijada sutka mobaynida eng yuqori va eng past harorat orasida farq kam bo'ladi. Ya'ni odamlar va tabiat tunda ham kunduzgi kabi issiq va dim havo ta'sirida qoladi. Ushbu sutkalik issiqlik esa keskin isish hodisasini keltirib chiqaradi. Iqlim o'zgarishi va global isish oqibatlari. Haroratning ko'tarilishi global miqyosda atmosferani va uning barcha imkoniyatlarini barqarorlashtiradi, qurg'oqchilik keltirib chiqaradi, yog'ingarchilik ko'payib, toshqinlar bo'lish ehtimoli yuqorilashadi, kasallik tarqalishi ko'payadi va hayvon turlari yo'q bo'lib ketadi. Inson bilan, shuningdek, tabiiy o'zgarishlar bilan bog'liq sabablar-issiqxona effekti, o'rmonlarni yo'q qilish, tabiiy gaz va neft qazib olish, yoqilg'i yordamida elektr energiya ishlab chiqarish. Yerdagi eng past havo harorati 1983-yil 21- iyulda Antarktidaning "Vostok" stansiyasida qayd etilgan, o'shanda maxsus termometr -89,2 C ni ko'rsatgan. Bu meteorologik kuzatuvlar tarixidagi eng past haroratdir. Eng issiq havo harorati 1922-yilda Liviyada qayd etilgan. Unga ko'ra, Yerdagi eng yuqori harorat +57,8 C deb belgilangan. Inson uchun eng qulay harorat +20...+25 daraja. Yer yuzidagi insonlar o'rtacha havo harorati -50 va +50 daraja oraliqdagi sharoitda yashay olish mumkin, lekin ayrim hududdagi insonlar -50 darajadan yuqoriroq va +50 darajadan pastroq ko'rsatgichlarga ega sharoitda ham jon saqlay oladilar.

Global iqlim o'zgarishining O'zbekiston iqlimiga ta'siri.

- harorat ko'tarilishi natijasida suvning bug'lanish koeffitsiyenti oshishi hududlarda suv resurslari kamayishiga, tanqisligiga olib kelmoqda;
- ekologik tanglik oqibatida yil davomida umuman yog'ingarchilik bo'lmagan kunlar soni ko'paymoqda;
- tuproqning namligi kamayishi hisobiga takroriy qurg'oqchilik xavfi ortmoqda va hosildorlik ko'rsatkichlari tushib ketmoqda;
- Orol dengiziga quyiladigan suv hajmining kamayishi daryo deltasining cho'lga aylanishi va qurigan dengiz tubida yangi cho'l maydonlari paydo bo'lishi tezlashtiryapdi;
- atmosferada changlanish miqdori ortmoqda;
- haddan ortiq isish va sovish kabi anomal hodisalar qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo'lishiga olib kelmoqda.

Iqlimni shakllantirish omillari: Olimlar ko'plab arxealogik tadqiqotlar o'tkazdilar va sayyoramiz iqlimi ko'p marta o'zgarganligi haqida xulosa qilishdi. Bu skorda ko'plab farazlar ilgari surildi.

Fikrlarning biriga ko'ra, agar Yer va Quyosh o'rtasidagi masofa bir xil bo'lsa, sayyora aylanishi tezligi va eksa burchagi, iqlim barqaror bo'lib qoladi.

Iqlim o'zgarishlarining tashqi omillari:

1. Quyosh nurlanishining o'zgarishi quyosh radiatsiya oqimlarining o'zgarishiga olib keladi.
2. TEKTONIK plitalarning harakatlari yerning orografiyasini, shuningdek, okean darajasini va uning aylanishini ta'sir qiladi.
3. Atmosfera gazining tarkibi, xususan, metan va karbon dioksid kontsentratsiyasi.
4. Yerning aylanish o'qining burchaklaridagi o'zgarish.
5. Quyoshga nisbatan sayyora orbital parametrlarini o'zgartirish.
6. Yer va kosmik falokatlar.

Iqlim o'zgarishining sabablari, boshqa narsalar qatorida, insoniyat tabiatda uning mavjudligi davomida aralashganligi bilan bo'liq. O'rmonlarni kesish, yerni shudgorlash, yerni yaxshilash va hokazolar namlik va shamol sharoitida o'zgarishlarga olib keladi.

Odamlar atrofdagi tabiatdagi o'zgarishlarni amalga oshirganda, botqoqlarni to'kish, sun'iy suv omborlarini qurish, o'rmonlarni kesish yoki yangisini ekish, shaharlarni qurish va hokazolar, mikroiklimning o'zgarishi. O'rmon shamol rejimiga katta ta'sir ko'rsatadi, bu yerda qor qoplaminig qanday ekanligi, tuproqning qanchalik sovuq bo'lgani bog'liq.

Iqlim o'zgarishining oqibatlarini bartaraf etish uchun, birinchi navbatda, atmosferada issiqxona gazlari darajasini kamaytirish kerak. Insoniyat kam energiya va yangilanishi mumkin bo'lishi kerak bo'lgan yangi energiya manbalariga o'tishi kerak. Ertami-kechmi jahon hamjamiyati bu savol bilan jiddiy duch keladi, chunki bugungi kunda qo'llanilgan mineral resurs qayta tiklanmaydi. Bir kuni olimlar yangi, yanada samarali texnologiyalarni yaratishlari kerak bo'ladi. Bundan tashqari, atmosferada karbonat angidrid darajasini pasaytirish kerak, va bu faqat o'rmon maydonlarini tiklashda yordam berishi mumkin. Siz Yerdagi global harorat barqarorlashtirish maksimal say-harakatlarni amalga oshirish, istalgan muvaffaqiyatli emas bo'lsa ham, lekin, insoniyat global isish minimal ta'sir erishish uchun harakat qilish kerak.

### References:

1. O.E.Tigay, Yu.V.Malikova. – Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023. – 64 b.
2. Ergashev A. Ergashev T. Ekologiya, biosfera va tabiatni muxofaza qilish. T: “Yangi asr avlodi”, 2005, b- 262-263
3. Ochilova B. Tabiatdan foydalanish bu insonning maqsadga muvofiq yo'naltirilgan faoliyati sifatida. Falsafa va huquq 2007, b-60
4. E. Usmonov. Ekologik munosabatlarning globallashuvi. Jamiyat va boshqaruv. Ilmiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy tarixiy jurnal. Toshkent, 2007, N\_2, 89-90-bet.
5. Mustafoyev S., O'rinov S., Suvonov P. Umumiy ekologiya. O'zbekiston yozuvchilar uyishmasi. Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent-2006, b-10-11
6. Yu. F. Mahmudov. Ekologiyadan qo'llanma. T., “Fan”, 1997.
7. B. A. Xolliyev, A. I. Ikromov. Ekologiya. T., “Mehnat”, 2001.
8. Tursunov. M. Iqlim o'zgarishining ta'siri haqida. O'zbekiston ekologiyasi.-2020.-15-20-betlar.
9. Akhmedova, Z. Iqlim o'zgarishining o'rni va uning ta'siri. T: “Xalqaro tabiatni ma'rifat yilligi”, 2020.-16-20-betlar.

10. Egamberdiyev X.T. Xolmatjonov B.M. Iqlim o'zgarishi asoslari. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. T: Yangi nashr, 2007.-172 b.

